YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA KASBIY TANLOVGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI: NAZARIY YONDASHUVLAR SHARHI

Gulmira Xojabay qizi Madreyimova*
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya kafedrasi, Psixologiya faoliyat turlari mutaxassisligi 2-bosqich magistratura talabasi
✉ gulmiramadreymova550@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yuqori sinf o‘quvchilarida kasbiy tanlovga psixologik tayyorgarlikning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Rus klassik psixologiya maktabi vakillari L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, E.A.Klimov, N.S.Pryajnikovning nazariy qarashlari, o‘zbek psixolog olimlari E.G‘. G‘oziyev, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, D.Super, J.Holland, A.Bandura, R.Lent, S.Brown, G.Hackett va M. avickas tomonidan ishlab chiqilgan jahon miqyosidagi kasbiy rivojlanish nazariyalari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar

kasbiy tanlov, psixologik tayyorgarlik, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash, kasbiy motivatsiya, ijtimoiy-psixologik determinantlar, yuqori sinf o‘quvchilari, kasbiy identifikatsiya, oilaviy muhit, kasbiy yo‘nalganlik, shaxsiy qobiliyatlar.

DOI: 10.5281/zenodo.24423475

KIRISH

Kasb tanlash inson hayotidagi muhim qarorlardan biri bo‘lib, uning mazmuni faqat muayyan mutaxassislik yoki faoliyat turini belgilash bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayon shaxsning kelajakdagi hayotiy maqsadlari, ijtimoiy mavqeyi, o‘z imkoniyatlarini namoyon etishi, jamiyatda munosib o‘rin egallashi va o‘z hayotidan qoniqish hosil qilishi bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, yuqori sinf davri o‘quvchining kasbiy kelajagi haqida mustaqil fikr yuritishi, o‘z qiziqish va qobiliyatlarini baholashi, turli kasblar to‘g‘risidagi tasavvurlarini aniqlashtirishi hamda hayotiy rejalari shakllanishi bilan xarakterlanadi. Yuqori sinf o‘quvchilarida kasbiy tanlovga psixologik tayyorgarlikning shakllanishi birgina kasbga qiziqish yoki muayyan sohada ishlash istagi bilan belgilanmaydi. Bu jarayon, avvalo, o‘quvchining o‘z shaxsiy xususiyatlarini anglashiga, kasbiy faoliyatga nisbatan barqaror motivlar shakllantirishiga, tanlangan kasbning mazmuni va talablarini tushunishiga, qaror qabul qilish mas’uliyatini his etishiga bog‘liq. Shu sababli kasbiy tanlovga psixologik tayyorgarlikni individual va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanuvchi ko‘p komponentli psixologik holat sifatida o‘rganish zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Kasbiy tanlov muammosining nazariy asoslarini o‘rganishda rus psixologiya maktabining faoliyat, shaxs rivojlanishi, motivatsiya va ijtimoiy muhitning psixologik taraqqiyotga ta’siri haqidagi qarashlari muhim metodologik ahamiyatga ega. Xususan, L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida shaxsning psixik taraqqiyoti ijtimoiy munosabatlar, ta’lim va madaniy muhit bilan uzviy bog‘liqlikda izohlanadi[3,b-221]. Olimning qarashlariga ko‘ra, insonning psixologik rivojlanishi faqat biologik yetilish natijasi emas, balki uning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi va atrofdagilar bilan munosabatlari jarayonida shakllanadi. Ushbu nazariy yondashuvni kasbiy tanlov jarayoniga tatbiq etadigan bo‘lsak, yuqori sinf o‘quvchisining kasbiy tasavvurlari ham oila, maktab, pedagoglar, tengdoshlar va keng ijtimoiy muhit ta’sirida tarkib topishini ko‘rish mumkin. S.L.Rubinshteynning shaxs va faoliyatning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi konsepsiyasi ham kasbiy tanlovga psixologik tayyorgarlikni tushuntirishda alohida ahamiyatga ega. Uning yondashuvida shaxs faoliyat jarayonida shakllanadi va o‘zining ichki imkoniyatlarini faoliyat orqali namoyon etadi. A.N.Leontyevning faoliyat

nazariyasida ehtiyoj, motiv va maqsad o‘rtasidagi munosabatlar shaxs faoliyatining mazmunini belgilovchi asosiy psixologik mexanizmlar sifatida talqin qilinadi[3,b-97]. Ushbu qarash kasbiy tanlov motivlarini tahlil qilish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Chunki o‘quvchi muayyan kasbni tanlashda faqat tashqi talab yoki moddiy manfaatni emas, balki o‘z ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari va kelajakdagi maqsadlarini ham hisobga oladi. Agar kasbiy tanlov shaxsning ichki motivlari bilan uyg‘unlashsa, unda tanlangan yo‘nalishga nisbatan qiziqish va intilishning barqaror bo‘lish ehtimoli ortadi. Rus psixologiya maktabida kasbiy o‘zini o‘zi belgilash masalalarini bevosita o‘rgangan olimlardan biri E.A.Klimov hisoblanadi. Uning kasbiy o‘zini o‘zi belgilashga oid qarashlarida insonning individual xususiyatlari, kasbiy faoliyat talablari va mehnat dunyosi haqidagi bilimlari o‘zaro muvofiqligi muhim o‘rin tutadi. Klimov kasblarni inson, texnika, tabiat, belgilar tizimi va badiiy obrazlar bilan bog‘liq faoliyat yo‘nalishlari asosida tasniflagan. Mazkur tasnif o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlash, turli faoliyat turlariga moyilligini anglash va kasblar olami haqida tizimli tasavvur shakllantirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Olim kasbiy o‘zini o‘zi belgilashni shaxsiy va ijtimoiy o‘zini o‘zi belgilash bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladi. Bu yondashuv yuqori sinf o‘quvchilarida kasbiy tanlovga psixologik tayyorgarlikni shakllantirishda mustaqillik, mas’uliyat va hayotiy maqsadlarning ahamiyatini ochib beradi.

O‘zbek psixologiya fanida ham shaxs rivojlanishi, yosh davrlari psixologiyasi, motivatsiya, qobiliyatlar, oila va ta’lim muhitining shaxs kamolotiga ta’siri masalalari keng yoritilgan. E.G‘.G‘oziyevning umumiy va yosh davrlari psixologiyasiga oid ilmiy qarashlari o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlari, qiziqishlari va shaxsiy rivojlanish qonuniyatlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega[5,b-137]. Olimning psixologik qarashlaridan kelib chiqib, kasbiy tanlovga tayyorgarlikni o‘quvchining o‘z qobiliyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va individual imkoniyatlarini anglash jarayoni bilan bog‘lash mumkin. M.G.Davletshinning yosh davrlari va pedagogik psixologiyaga oid ilmiy ishlari o‘quvchi shaxsining yosh xususiyatlari, ta’lim jarayonidagi psixologik rivojlanishi va individual farqlarini tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. V.M.Karimovaning[7,b-278]‘ oila psixologiyasi bo‘yicha ilmiy yondashuvlari kasbiy tanlovga ta’sir qiluvchi oilaviy determinantlarni tahlil etishda muhimdir. Oila bolaning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti bo‘lib, unda mehnatga munosabat, kasblar haqidagi tasavvurlar, muvaffaqiyat va mas’uliyat mezonlari shakllanadi. Ota-onalarning farzand kasbiy kelajagiga munosabati, oiladagi psixologik muhit, o‘zaro ishonch va qo‘llab-quvvatlash darajasi o‘quvchining kasbiy qarorlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunda ota-onaning kasbiy tajribasi va tavsiyalari muhim axborot manbai bo‘lsa-da, farzandning individual qiziqishlari va mustaqil tanlov huquqini cheklamasligi lozim. Z.T.Nishonova va boshqa o‘zbek psixolog olimlarining yosh davrlari, pedagogik psixologiya hamda psixodiagnostikaga oid yondashuvlari o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini aniqlash, individual farqlarini hisobga olish va ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlash uchun muhimdir[10,b-97]. Ushbu ilmiy qarashlar kasbiy yo‘naltirish jarayonida o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati, temperament xususiyatlari va motivatsion sohasini hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Jahon psixologiyasida kasbiy tanlov va kasbiy rivojlanish muammosi bir necha nazariy yo‘nalishlarda o‘rganilgan. D.Superning kasbiy rivojlanish nazariyasida kasbiy tanlov inson hayotining turli bosqichlarida davom etadigan rivojlanish jarayoni sifatida qaraladi. Olim shaxsning o‘zini kasbiy faoliyat bilan bog‘liq holda anglashi, ya’ni kasbiy o‘zlik konsepsiyasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchining kasbiy qarori uning qobiliyatlari, qiziqishlari, qadriyatlari va o‘ziga bergan bahosi bilan uyg‘unlashganida mazmunli tus oladi. J.Hollandning kasbiy tanlov nazariyasida shaxsning qiziqishlari va individual xususiyatlari bilan kasbiy muhit o‘rtasidagi moslik asosiy mezon sifatida belgilanadi. Holland shaxs va kasbiy muhitni realistik, tadqiqotchi, artistik, ijtimoiy, tadbirkorlik va konvensional yo‘nalishlarga ajratadi. Ushbu nazariyaga muvofiq, kasbiy tanlov jarayonida o‘quvchining qaysi faoliyat turlariga moyilligi, qanday sharoitda samarali ishlashi va qaysi kasbiy muhitda o‘z imkoniyatlarini namoyon eta olishi hisobga olinishi kerak. Bu esa kasb tanlashda faqat kasbning nufuzi yoki moddiy manfaatiga emas, balki shaxs va faoliyat o‘rtasidagi psixologik moslikka e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. A.Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi kasbiy tanlovga tayyorgarlikni tushuntirishda o‘z samaradorligiga ishonch tushunchasi orqali alohida ahamiyatga ega. O‘quvchining muayyan vazifani bajara olishiga, tanlangan yo‘nalishda muvaffaqiyatga erisha olishiga ishonishi uning kasbiy qiziqishlari va qarorlariga ta’sir qiladi. Agar o‘quvchi o‘z imkoniyatlarini past baholasa yoki muvaffaqiyatsizlikdan haddan tashqari qo‘rqsa, ayrim kasbiy yo‘nalishlarni hatto qiz-

iqishi mavjud bo‘lgan taqdirda ham tanlashdan voz kechishi mumkin. Shu sababli psixologik tayyorgarlikda o‘ziga ishonch, ijobiy tajriba, qo‘llab-quvvatlash va mustaqil faoliyatga rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. R.Lent, S.Brown va G.Hackett[4,b-97] tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-kognitiv kasbiy rivojlanish nazariyasi kasbiy qiziqish, kasbiy tanlov va faoliyatdagi muvaffaqiyatni o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida izohlaydi. Ushbu nazariyada uchta asosiy omil - o‘z samaradorligiga ishonch, natijalarni kutish va shaxsiy maqsadlar alohida o‘rin tutadi.

Nazariy tahlil natijalari

Nazariy manbalarni qiyosiy o‘rganish yuqori sinf o‘quvchilarida kasbiy tanlovga psixologik tayyorgarlikni bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlar orqali izohlash imkonini beradi. Birinchi navbatda, kognitiv komponent muhim ahamiyatga ega. U o‘quvchining kasblar olami, mehnat faoliyatining mazmuni, muayyan kasbga qo‘yiladigan talablar, ta’lim yo‘nalishlari va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari haqidagi bilimlarini qamrab oladi. Kasblar to‘g‘risida yetarli va haqqoniy tasavvurga ega bo‘lmagan o‘quvchining tanlovi ko‘pincha tashqi taassurotlar, kasbning nufuzi yoki atrofdagilarning fikriga asoslanib qolishi mumkin. Shu sababli kasbiy axborot bilan ta’minlash psixologik tayyorgarlikning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchi tarkibiy qism motivatsion komponent bo‘lib, u o‘quvchining muayyan kasbni egallashga bo‘lgan ichki intilishi, qiziqishi, ehtiyoji va kelajakdagi maqsadlari bilan belgilanadi. Kasbiy motivatsiya shaxsning tanlangan faoliyatga nisbatan munosabatini, kasbiy rivojlanishga tayyorligini va qiyinchiliklarni yengib o‘tishga bo‘lgan intilishini ifodalaydi. Bunda ichki motivlar: qiziqish, o‘zini namoyon etish, ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va jamiyatga foyda keltirish istagi bilan tashqi motivlar: moddiy manfaat, kasbning nufuzi, ota-ona istagi yoki ijtimoiy mavqega erishish intilishi o‘rtasidagi munosabat muhimdir. Kasbiy tanlovga psixologik tayyorgarlikning shakllanishida oilaviy muhit alohida determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Oila o‘quvchining kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlari, mehnatga munosabati va hayotiy qadriyatlari shakllanadigan muhim ijtimoiy institutdir[5,b-237]. Ota-onalarning kasbiy faoliyati, mehnatga bo‘lgan munosabati, farzand bilan muloqot uslubi va uning qiziqishlariga e’tibor berishi kasbiy qarorlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Oilada ochiq muloqot, o‘zaro hurmat va psixologik qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lsa, o‘quvchi o‘z istaklarini erkin ifodalashi va turli kasbiy yo‘nalishlarni xolis baholashi uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Ta’lim muassasasi ham kasbiy tanlovga psixologik tayyorgarlikni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi. Maktabda o‘quvchilarning fanlarga qiziqishi, individual qobiliyatlari va faoliyatga moyilliklari namoyon bo‘ladi. Pedagoglarning munosabati, o‘quv jarayonida yaratilgan imkoniyatlar, kasbga yo‘naltirish tadbirlari, kasbiy uchrashuvlar va psixologik maslahatlar o‘quvchilarning kasblar haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Muhokama

Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlar kasbiy tanlovga psixologik tayyorgarlikni faqat shaxsning individual xususiyatlari bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. L.S.Vigotskiy va A.N.Leontyevning qarashlari shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit hamda faoliyatning ahamiyatini ochib bersa, S.L.Rubinshteyn konsepsiyasi shaxsning o‘z imkoniyatlarini faoliyat jarayonida namoyon etishiga e’tibor qaratadi. E.A.Klimov[4,b-237] va N.S.Pryajnikovning[5,b-316] kasbiy o‘zini o‘zi belgilashga oid yondashuvlari esa o‘quvchining individual xususiyatlari, kasblar haqidagi bilimlari va hayotiy maqsadlari o‘rtasidagi muvofiqlikni asoslaydi. O‘zbek psixologiya fanida shakllangan yosh davrlari, shaxs rivojlanishi, oila psixologiyasi va individual xususiyatlarga oid ilmiy qarashlar ushbu masalaning milliy-ijtimoiy sharoitdagi jihatlarini tushunishga yordam beradi.

Jahon psixologiyasidagi D. Super, J. Holland, A. Bandura hamda R. Lent va uning hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar esa kasbiy tanlovning individual, motivatsion va ijtimoiy-kognitiv mexanizmlarini tushuntiradi. Ayniqsa, Lent, Brown va Hackett nazariyasida shaxsning o‘z samaradorligiga ishonchi, natijalarni kutishi va shaxsiy maqsadlari tashqi muhitdagi imkoniyatlar hamda to‘siqlar bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuv yuqori sinf o‘quvchilarining kasbiy qarorlarini tahlil qilishda oila va ta’lim muassasasi ta’sirini individual psixologik xususiyatlardan ajratmaslik zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Yuqori sinf o‘quvchilarida kasbiy tanlovga psixologik tayyorgarlikning ijtimoiy-psixologik determinantlarini nazariy tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi. Kasbiy tanlovga psixologik tayyorgarlik murakkab va ko‘p komponentli jarayon bo‘lib, u o‘quvchining kasblar haqidagi bilimlari, kasbiy motivatsiyasi, o‘zini baholashi, o‘z imkoniyatlariga ishonchi, mustaqil qaror qabul qilishi va kasbiy maqsadlarni belgilashi bilan tavsiflanadi. Umuman olganda, yuqori sinf o‘quvchilarida kasbiy tanlovga psixologik tayyorgarlikni shakllantirish shaxsning ichki salohiyati va ijtimoiy muhit imkoniyatlarini uyg‘unlashtirishga asoslangan uzluksiz rivojlanish jarayonidir. Ushbu jarayonda o‘quvchining mustaqil fikrlashi, o‘z imkoniyatlarini anglashi va tanlov uchun mas’uliyatni his qilishi uning kelajakdagi kasbiy rivojlanishi uchun muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л.С.Педагогическая психология. Москва:Педагогика-Пресс, 1996.
2. С.Л.Рубинштейн Основы общей психологии.Санкт-Петербург:Питер, 2002.
3. А.Н.Леонтьев.Деятельность.Сознание.Личность.Москва:Политиздат, 1975.
4. Е.А.Климов Психология профессионального самоопределения. Москва: Академия, 2004.
5. Н.С.Пряжников Психология труда и профессионального самоопределения. Москва: Юрайт, 2015.
6. E.G‘.G’oziyev Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
7. E.G‘.G’oziyev Psixologiya: kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toshkent:O‘qituvchi, 2014.
8. M.G.Davletshin Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent, 2004.
9. V.M.Karimova Oila psixologiyasi. — Toshkent, 2007.
10. Z.T.Nishonova G.K.Alimova Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2017.